© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASINI ABADIYLASHTIRAYLIK

Xabibullayeva Mohinurxon Asadxòjayevna
MTS 24/1 guruh talabasi
mohinurxabibullayeva90@gmail.com
tel raqam:+ Tel: 97 756 85 95
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23496160

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining qatag‘onga uchrashi hamda mustaqillik yillarida jadidlar xotirasi va jadid adabiyotining qayta tiklanishi haqida ma’lumotlar berilgan. 1930–1950 yillardagi Sovet totalitar tuzumi davrida O‘zbekistonda ro‘y bergan siyosiy repressiyalar va qatag‘onlarning tarixiy sabablari, jarayoni hamda oqibatlari tahlil qilinadi. Maqolada ayniqsa milliy ziyolilar, yozuvchilar, diniy ulamolar va boshqa ijtimoiy qatlamlarga qarshi olib borilgan ta’qiblar misolida repressiya siyosatining mohiyati ochib beriladi[1].

Kalit so‘zlar: qatag‘on siyosati, qatag‘on qurbonlari muzeyi, oqlash siyosati, Qatag‘onlar tarixi, 1930–1950 yillar, Sovet totalitarizmi, O‘zbekiston tarixi, Milliy ziyolilar, Ijtimoiy xotira, Madaniy meros, Repressiya siyosati, Tarixiy adolat.

Kirish:

Ma’lumki, 1937–1953-yillarda mustabid tuzum tomonidan 100 mingdan ziyod xalqimiz vakillari qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgan. Bu yurtdoshlarimizning 13 ming nafari otib tashlangan, minglab kishilar nohaq quloq qilingan, surgunlarga jo‘natilgan. Ular orasida atoqli davlat va siyosat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor ziyolilar, diniy ulamolar, harbiy soha va sud-huquq tizimi xodimlari, ishchi-dehqonlar va ularning oila a’zolari bo‘lgan.

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha keyingi yillarda yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda[2].

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning ma’naviy hayotida yangi –uyg‘onish, o‘zlikni anglash davri boshlandi. Avvalgi ma’muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto‘g‘ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo‘lmish milliy tarixni qayta tiklash imkoniyati tug‘ildi. Tabiiyki, bu jarayon oson kechmadi.

Asosiy qisim:

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan jadidchilik madaniy-ma’rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U mustamlakachilarga qarshi ko‘tarilgan milliyozodlik harakatining mafkurasiga aylandi. Turkiston jadidlariga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o‘nlab ziyolilar rahnamolik qildilar. Jadidlar guruhiy, ijtimoiy va hududiy birlik to‘g‘risidagi masalalarni ko‘tarib, xalqni milliy va diniy birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongni XX asr darajasiga ko‘tarishga intildilar[3].

[1] https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/12948

[2] https://oyina.uz/uz/posts/23785

[3] QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH MUSTAQILLIK YILLARIDA. Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti 3- bosqich talabasi Murtazayeva Fotima

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Tarix — xalqning o‘zligini anglash, o‘tmishidan saboq olish va kelajagini belgilashga xizmat qiladigan buyuk xazinadir. Tarix oddiygina eski voqealar yig‘indisi emas. U — bugungi kunimizni anglash va kelajakni to‘g‘ri qurish uchun kerak bo‘ladigan bebaho xotira. O‘z tarixini bilgan inson o‘z xalqining kimligini, qanday qadriyatlarga ega ekanini va bugungi hayot qanday shakllanganini yaxshiroq tushunadi. Har bir xalqning tarixida faxrli va quvonchli kunlar bilan bir qatorda, og‘ir va fojeali davrlar ham mavjud. O‘zbekiston tarixidagi ana shunday murakkab davrlardan biri qatag‘on siyosati yillari hisoblanadi.

XX asrning 30–50-yillaridagi siyosiy qatag‘onlar davri o‘zbek xalqining milliy taraqqiyoti va madaniy merosiga katta zarba bergan. Bu yillarda minglab begunoh odamlar, xususan, ziyolilar, din arboblari, shoir va yozuvchilar "xalq dushmani" degan tamg‘a bilan qamaldi, surgun qilindi yoki o‘lim jazosiga hukm etildi. Bugungi kunda ushbu tarixiy voqealarni xolisona o‘rganish, qatag‘on qurbonlarining xotirasini abadiylashtirish juda muhimdir. Qatag‘on qurbonlarini xotirlash faqatgina ularning nomlarini yodga olish bilan cheklanmaydi. Ularning ilmiy, adabiy va ma’rifiy merosini o‘rganish ham xotirani abadiylashtirishning muhim shaklidir.Masalan, ularning kitoblarini o‘qish, asarlarini maktab va oliy ta’lim dasturlarida o‘rganish, ular haqida ilmiy izlanishlar olib borish, muzey va yodgorliklarga tashrif buyurish orqali tarixiy xotirani saqlash mumkin.Bundan tashqari qatag‘on qurbonlari haqida yangi badiiy va hujjatli filimlar tayyorlash ham mumkin.

Ajdodlar merosi-bizga saboq. Qatag‘on qurbonlari o‘z hayotlari evaziga xalqimizga bebaho ma’naviy meros qoldirdilar. Ularning asarlari, ilmiy va ma’rifiy faoliyati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularni o‘rganish orqali biz vatanparvarlik, ilmga intilish, milliy o‘zlikni anglash va inson qadrini ulug‘lash kabi fazilatlarni yanada chuqurroq tushunamiz. Ayniqsa, yoshlar qalbida tarixga hurmat tuyg‘usini shakllantirish muhim. Maktablarda, oliy ta’lim muassasalarida qatag‘on qurbonlari hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadbirlar, suhbatlar, ko‘rgazmalar va ilmiy izlanishlar tashkil etilishi ularning xotirasini abadiylashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yosh avlodga qatag‘on davrining saboqlarini tushuntirish juda muhim. Yoshlar tarixni bilish orqali inson huquqlari, adolat, erkin fikr va tinchlik kabi qadriyatlarning ahamiyatini chuqurroq anglaydi.

Qatag‘onlarning sabablari

Qatag‘on siyosati, ayniqsa, 1930-yillarda Sovet Ittifoqida kuchaygan siyosiy ta’qiblar bilan va bu fojiali jarayoning yuzaga kelishiga turli sabablar mavjud edi. O‘zbekistonda ham ko‘plab insonlar siyosiy va mafkuraviy ayblovlar bilan ta’qib qilingan. Mustaqil fikrlagani — hokimiyat siyosatini tanqid qilgan yoki o‘z qarashlarini erkin bildirganlar ta’qib qilingan.

Milliy manfaatlarni himoya qilgani — xalqning tili, madaniyati, milliy qadriyatlari va taraqqiyoti haqida qayg‘urgan ziyolilar “millatchilik”da ayblangan. Jadidchilik faoliyati — ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, ilm-fan va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilgan ko‘plab jadidlar qatag‘onga uchragan. Asossiz yoki soxta ayblovlar — ba’zi insonlar o‘zlari qilmagan jinoyatlarda ayblanib, sudlangan yoki jazolangan. Eng achinarlisi, ko‘plab qatag‘on qurbonlari aslida xalqiga xizmat qilgan olim, yozuvchi, o‘qituvchi va ma’rifatparvarlar edi. Ularning ta’qib qilinishi nafaqat oilalariga, balki mamlakatning ilm-fani, adabiyoti va madaniy rivojiga ham katta zarar yetkazdi.

Shunday shaxlardan biri – Abdulla Qodiriy bo‘lib,u o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi bo‘lib, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi asarlarining muallifi edi. Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida milliy uyg‘onish,mustaqil fikirlash va ijtimoiy adolat g‘oyalarini ilgari surgan. Shu bois “xalq dushmani” sifatida ko‘rilgan

Yana bir mashhur shaxslardan biri -Fitrat ham milliy uyg‘onish harakatining yetakchilaridan biri edi. U adabiyot,falsafa va boshqa sohalarda faoliyat yuritib,jadidchilik harakatining asoschilaridan biri edi. Shu sababli u ham 1937-yilda qamoqqa olingan.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Cho‘lpon esa o‘zining she’rlari va nasriy asarlari orqali milliy iftixor,ozodlik va erk go‘yalarini targ‘ib qilgan. U “Kecha va kunduz” romanida xalqning azob-uqubatini, ijtimoiy tengsizlikni tasvirlab bergan. Cho‘lpon ham 1937-yilda qatag‘on etilib, o‘lim jazosiga hukm qilingan.

Bu shaxslar nafaqat o‘zbek xalqining faxri, balki butun Markaziy Osiyo tarixining yirik siymolari edi. Ularning asarlari, ilmiy ishlari va ijtimoiy faoliyati orqali xalqni uyg‘otishga, taraqqiyot sari yetaklashga intilishi sovet tuzumi uchun xavf deb topilgan. Ularning aybi esa faqat o‘z millati uchun xizmat qilganligi edi.

Qatag‘onning jamiyatga ta’siri. Qatag‘onning jamiyatga ta’siri juda katta bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Qatag‘onlarning eng og‘ir oqibatlaridan biri – jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitining yuzaga kelganidir. Odamlar bir-biridan shubhalana boshladi, eng yaqin qarindosh yoki do‘stdan ham xavfsirash holatlari keng tarqaldi. Tuhmat qilish, ig‘vogar bo‘lish orqali manfaat izlash holatlari jamiyatda axloqiy inqirozni yuzaga keltirdi. Bu esa mustahkam ijtimoiy aloqalar, birdamlik va hamjihatlikka jiddiy zarba berdi. Shuningdek, qatag‘on davrida yuzlab ziyolilar, olimlar, adiblar, o‘qituvchilar, qatag‘on qilindi. Bu esa ilm-fan, madaniyat va ta’lim tizimining rivojiga katta zarar yetkazdi.

Ziyolilar sinfining yo‘q qilinishi natijasida xalqni o‘qituvchi, yo‘lboshchi, ma’naviy ustozlaridan ayirdi. Yangi avlod bir necha o‘n yillar davomida milliy tarix, madaniyat va qadriyatlardan uzilgan holda voyaga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida” 2001-yil 1-maydagi PF-2837-son Farmoniga muvofiq, mustabid tuzum yillarida qatag‘on etilgan fidoiy vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyatini tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasida har yili 31-avgust sanasida qatag‘onlarni yod etish kuni keng nishonlanib kelinmoqda. Ushbu sana sovet mustabid tuzumi davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan minglab vatandoshlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida joriy etilgan. Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi. “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshida uning bo‘limlari tashkil etildi.

Muzeyning asosiy vazifalari quyidagilar: qatag‘onchilik siyosatining paydo bo‘lish sabablari va oqibatlarini tadqiq etish va uni mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi sifatida aks ettirish; mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi otabobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash; qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog‘liq ma’naviy ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish va targ‘ib etish; qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini o‘rganish; ilmiyijodiy merosini to‘plash, nashrga tayyorlash va chop etish; muzey fondlari va ekspozitsiyalarini mamlakatimiz hamda xorijdagi turli hujjatlar va boshqalar eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borish. Bino an’anaviy me’morlik uslubi (ayvon, gumbaz, peshayvon, ravoq va boshqalar) da qurilib, milliy bezaklar bilan ziynatlangan.

Muzey binosi murabba tarhli (20x20 m), balandligi 20 m, gumbazli (balandligi 6,2 m, diametri 5,8 m; feruza rang gumbazi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuidagi ayvon gumbazi bilan uyg‘un), bino atrofi kengligi 4 m bo‘lgan ochiq ayvon bilan o‘ralgan, undagi 28 ta ustun va to‘sinlar hamda 4 tarafdagi kirish zinapoyalari binoga o‘ziga xos salobat baxsh etadi. Binoning pastki qismida texnikmuhandislik, ma’muriyat va boshqalar qo‘shimcha xonalar joylashgan, ular ko‘rgazma zali bilan maxsus yo‘lak va zinapoyalar orqali uzviy bog‘lanadi. Bino bezagida marmar, haqiq, granit toshlar, rangli koshinlardan foydalanilgan.

Toshkent shahridagi yana bir muhim tarixiy-ma’naviy maskanlaridan biridir. Bu shahidlar maydoni bu majmua xalqimizning ozodligi va Vatan manfaatlari yo‘lida qurbon bo‘lhan insonlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan. Shahidlar xotirasi maydoni va muzeyning

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

ahamiyati shundaki, ular bizga tarixni unutmaslik, ajdodlar xotirasini hurmat qilish va o‘tmishdan saboq olish imkonini beradi. Bu maskanlar yoshlar uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Muzeyga tashrif buyurgan yoshlar tarixiy hujjatlar va eksponatlar orqali qatag‘on davrining murakkab voqealari, jadidlarning faoliyati va ajdodlarimiz boshidan kechirgan sinovlar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarorlari va Farmonlari: "1930-1950 yillarda siyosiy qatag‘onlar qurboni bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish to‘g‘risida"gi qonunlar va qarorlar."31-avgust - Repressiya qurbonlari xotirasi kuni"ni belgilash to‘g‘risidagi qaror.
2. "Shahidlar Xotirasi" Davlat Kitobi (Bir necha jild):
3. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan nashr etilgan, repressiya qurbonlari haqidagi eng muhim va keng qamrovli hujjatli manba. Minglab qurbonlarning qisqa tarjimai holi, ayblov hujjatlari, otish (yoki boshqa jazo) sanasi, reabilitatsiya sanasi kabi ma’lumotlar keltirilgan.
4. "SSSRda Qatag‘onlar: O‘zbekiston SSR" Hujjatlar to‘plami:Tahririyat:* R. Nabiyev, D. Alimova va boshqalar.
5. "O‘zbekistonning Yangi Tarixi" (Ikkinchi Kitob: O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida):
6. O‘zbekiston Milliy Arxividagi Fondlar (Maxsus ma’lumotlar talab qiladi):
7. Nabiyev, R. "O‘zbekistonda Sovet Hokimiyati Qurilishi Davrida Siyosiy Qatag‘onlar (1920-1930 yillar)". Toshkent: Fan, 1997.